

Amudaryo tumani Yo'llardan foydalanish UK tomonidan 1-yarim yillikda 41,2 km ichki yo'llar ta'mirlandi

Bugungi kunda zamonaviy avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda, respublika transport salohiyatini rivojlantirishda va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro standartlarga mos zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish, yo'l harakati qulayligi va xavfsizligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bu borada salmoqli ishlarni tashkil etishda muhim hujjat bo'lmoqda.

Amudaryo tumani Yo'llardan foydalanish unitar korxonasi sohada joriy qilinayotgan islohotlar ijrosini ta'minlash borasida samarali faoliyat olib bormoqda. Korxonada tomonidan tuman hududidagi ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Image not found or type unknown



Joriy yilning birinchi yarmida shartnomaviy qiymati 9 mlrd. 432 mln so'm bo'lgan 41,2 km ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Shundan 29,9 km yo'llarda tuproq ishlari, 22,2 km yo'llarda tosh yotqizish ishlari amalga oshirigan. Joriy yil yakuniga qadar 8,3 km ichki yo'llarga asfalt yotqizish ishlari rejalashtirilgan. Tumandagi Xitoy va Qipchoq

ovullari, Chordara mahallasida eng ko'p ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari olib borilgan.

Shuningdek, tuman Yo'llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan joriy yil umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarida qator ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan hamda reja amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yil davomida davlat ahamiyatidagi yo'llarni ta'mirlash uchun 150 mln so'm, Qipchoq ponton ko'prigini joriy ta'mirlash uchun 350 mln so'm, mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash uchun esa 922 mln so'm mablag'lar ajratilgan.

Korxonada xodimlarining mashaqqatli mehnati evaziga qator ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Bugungi kunda korxonada jami 138 nafar ishchi-xodimlar faoliyat yuritib kelishmoqda. Korxonaga qarashli 3 ta yo'l bo'limi mavjud bo'lib, 1-yo'l bo'limda 23 nafar, 2-yo'l bo'limda 21 nafar, 3-yo'l bo'limda 25 nafar yo'llarni ta'mirlovchi xodimlar ish yuritishmoqda. Shuningdek, Qipchoq panton ko'prigi bo'limida 23 nafar, joriy ta'mirlash bo'limida 8 nafar, avtokalonnada 11 nafar, ustaxonada 8 nafar, tosh maydalash va saralash zavodida 2 nafar, boshqaruv apparatida 17 nafar xodimlar faoliyat yuritishadi.

Tuman Yo'llardan foydalanish unitar korxonasi xodimlarining ish jarayonlarini samarali tashkil qilish maqsadida qator zarur texnikalar jalb qilingan. Xususan, yo'llarni ta'mirlash ishlarini tashkil etishda 2 ta avtogreyder, 2 ta yuk ortuvchi mashina, 4 ta avtosamosval, 3 ta traktor hamda 2 ta ishchilarni tashiydigan avtomobil biriktirilgan.

Muxtasar aytganda, korxonada ish jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi, ishchilarning mashaqqatli mehnatlari natijasida tumanimiz yo'llari tobora ravonlashib, yo'lovchi hamda haydovchilar uchun yangi qulayliklar yaratilmoqda.

B.Xodjaev, Tuman Yo'llardan foydalanish unitar korxonasi direktori.